

## SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH MANBALARI VA ULARNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17596274>

**Jahongirova Kumush Nurbek qizi**

*O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi*

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatning iqtisodiy mohiyati, uni moliyalashtirish manbalari hamda moliyalashtirish samaradorligini baholash masalalari nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, "O'zAuto Motors" aksiyadorlik jamiyati misolida innovatsion loyihalarning moliyalashtirish amaliyoti o'rganilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, korxonada innovatsion faoliyatni kengaytirish uchun ichki mablag'lar bilan bir qatorda, xorijiy investitsiyalar, davlat qo'llab-quvvatlovi va kredit resurslaridan kompleks foydalanish zarur. Maqola yakunida O'zbekiston sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar berilgan.

### **Kalit so'zlar**

innovatsion faoliyat, moliyalashtirish manbalari, sanoat korxonalari, venchur kapital, investitsiyalar, innovatsion loyiha, "O'zAuto Motors", samaradorlik baholash, texnologik yangilanish.

### **Аннотация**

В данной статье теоретически исследуются экономическая сущность инновационной деятельности на промышленных предприятиях, источники её финансирования и оценка эффективности финансирования. На примере акционерного общества «O'zAuto Motors» рассмотрена практика финансирования инновационных проектов. Результаты исследования показывают, что для расширения инновационной деятельности предприятия необходимо использовать не только собственные средства, но и иностранные инвестиции, государственную поддержку и кредитные ресурсы. В заключение предложены рекомендации по совершенствованию системы финансирования инновационной деятельности в промышленности Узбекистана.

### **Ключевые слова**

инновационная деятельность, источники финансирования, промышленные предприятия, венчурный капитал, инвестиции,

ИННОВАЦИОННЫЙ проект, «UzAuto Motors», оценка эффективности, технологические инновации.

### Abstract

This article theoretically analyzes the economic essence of innovation activities in industrial enterprises, the sources of their financing, and the methods for evaluating financing efficiency. Using the case of “O’zAuto Motors” JSC, the practice of financing innovative projects is examined. The study results show that to expand innovation activities, the enterprise should utilize not only internal funds but also foreign investments, government support, and credit resources. The paper concludes with recommendations for improving the financing system of innovation activities in Uzbekistan’s industrial sector.

### Keywords

innovative activity, sources of financing, industrial enterprises, venture capital, investments, innovative project, "UzAuto Motors", performance assessment, technological innovation.

### KIRISH

Jahon iqtisodiyotida so‘nggi o‘n yilliklarda raqobatbardoshlikni ta‘minlovchi asosiy omil sifatida innovatsiyalar va ilmiy-texnik taraqqiyot yetakchi o‘ringa chiqdi. Sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishi, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, resurslardan samarali foydalanish hamda mahsulot sifatini oshirish to‘liq ravishda ularning innovatsion salohiyatiga bog‘liqdir. Shu bois, innovatsion faoliyatni moliyalashtirish tizimi nafaqat korxonada, balki milliy iqtisodiyot miqyosida ham strategik ahamiyat kasb etadi. Innovatsion faoliyatning o‘ziga xos jihati – yuqori tavakkalchilik, uzoq qaytish davri va katta hajmdagi kapital talab etilishidir. Shu sababli moliyaviy resurslarni oqilona shakllantirish, ularning manbalarini diversifikatsiya qilish va moliyalashtirish samaradorligini baholash masalalari dolzarbdir. Innovatsion loyihalar odatda o‘z mablag‘lari, bank kreditlari, davlat subsidiyalari, grantlar hamda xorijiy investitsiyalar hisobidan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston sanoat tarmoqlarida, xususan, avtomobilsozlik sohasida so‘nggi yillarda innovatsion loyihalarga bo‘lgan talab ortib bormoqda. “O’zAuto Motors” AJ mamlakat sanoatining flagman korxonalaridan biri sifatida yangi texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish va eksport hajmini oshirish bo‘yicha qator innovatsion loyihalarni amalga oshirmoqda. Ushbu jarayonlarni moliyalashtirish mexanizmlarini o‘rganish,

ularning iqtisodiy samaradorligini tahlil qilish amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega.

Maqolaning maqsadi – sanoat korxonalarida innovatsion loyihalarni moliyalashtirish manbalarini tahlil qilish, ularning samaradorligini baholash usullarini o‘rganish hamda “O‘zAuto Motors” AJ misolida amaliy tahlil asosida takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda O‘zbekiston sanoat tarmoqlarida innovatsion loyihalarni moliyalashtirish tizimi nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinib, moliyalashtirish manbalarining kompleks modeli taklif etiladi.

#### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy iqtisodiyotda innovatsion faoliyat korxonalar raqobatbardoshligini ta‘minlovchi, ularning barqaror o‘sishini kafolatlovchi eng muhim omillardan biri sifatida e‘tirof etiladi. “Innovatsiya” atamasi ilk bor XX asr boshlarida iqtisodchi olim Yozef Shumpeter tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo‘lib, u innovatsiyani “yangi mahsulot yaratish yoki mavjud ishlab chiqarish jarayonlarini tubdan o‘zgartirish orqali iqtisodiy o‘sishga turtki beruvchi omil” sifatida talqin qilgan [1].

Shumpeter innovatsiyalarni besh turga ajratgan[2]:

yangi mahsulot yoki xizmatni joriy etish;

yangi ishlab chiqarish texnologiyasini tadbiq etish

yangi xomashyo yoki resurslardan foydalanish

yangi bozorlarni o‘rganish

yangi tashkilot shakillarini yaratish


Mazkur yondashuv bugungi kunda sanoat korxonalari faoliyatida ham dolzarbligini saqlab qolmoqda. Chunki har bir ishlab chiqarish subyekti bozor

talabiga mos ravishda yangilanishni, texnologik modernizatsiyani va raqamli transformatsiyani amalga oshirishga majbur. Innovatsion faoliyat mohiyat jihatidan ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik, texnologik yangiliklarni joriy etish va ularni tijoratlashtirish bilan bog'liq kompleks jarayondir [3]. Innovatsiyalar natijasida korxonaning ishlab chiqarish xarajatlari kamayadi, mahsulot sifati oshadi va natijada raqobat ustunligi shakllanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonunida (2019-yil 24-iyul, O'RQ-559-son) innovatsion faoliyatga quyidagicha ta'rif beriladi: "Innovatsion faoliyat – yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotlar, xizmatlar, texnologiyalar, ishlab chiqarish jarayonlarini yaratish va joriy etish bo'yicha ilmiy, texnik, tashkiliy va moliyaviy faoliyatdir" [4]. Mazkur huquqiy asos innovatsion jarayonlarning ilmiy natijadan amaliy natijaga o'tishini tartibga soladi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida innovatsion iqtisodiyotga o'tish, sanoat korxonalarining texnologik yangilanishini jadallashtirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan [5].

Innovatsion faoliyatning iqtisodiy mohiyati shundan iboratki, u: ilmiy-texnik salohiyatni iqtisodiy resursga aylantiradi; ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi; yangi bozor imkoniyatlarini yaratadi; kapitalning yuqori rentabelligini ta'minlaydi [6]. Sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatning o'ziga xos jihati shundaki, bu jarayon ko'p bosqichli va resurs talabchidir. Ilmiy-tadqiqotdan tortib tijoratlashtirishgacha bo'lgan har bir bosqich alohida moliyaviy manba va risklarni boshqarish mexanizmini talab etadi. Shu bois, innovatsion jarayonlarning muvaffaqiyati bevosita moliyalashtirish mexanizmlarining to'g'ri tanlanishiga bog'liq.

Xorijiy iqtisodiy adabiyotlarda innovatsion faoliyatni moliyalashtirish manbalari uchta asosiy guruhga ajratiladi [7]:



Innovatsion faoliyatning samaradorligi esa faqat moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan emas, balki korxonaning texnologik darajasi, ishlab chiqarish madaniyati va inson kapitali bilan ham belgilanadi. Shu bois, bugungi kunda korxonalarda moliyaviy menejment bilan bir qatorda innovatsion boshqaruv tizimini shakllantirish zaruriyati ortib bormoqda [8].

#### TAHLILI VA NATIJALAR

O‘zbekiston avtomobilsozlik tarmog‘i mamlakat sanoatining eng yirik va innovatsion yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu tarmoqda yetakchi o‘rinni “O‘zAuto Motors” AJ egallab, u nafaqat ichki bozorni, balki MDH va Yevropa bozorlarini ham avtomobillar bilan ta‘minlab kelmoqda. So‘nggi yillarda korxonada faoliyatida innovatsion loyihalarni moliyalashtirish tizimi bosqichma-bosqich takomillashtirilib, ishlab chiqarish jarayonlari raqamlashtirildi, yangi modellar ishlab chiqildi va “yashil texnologiyalar” joriy etila boshlandi [9]. So‘nggi yillarda korxonada quyidagi asosiy innovatsion yo‘nalishlarga e‘tibor qaratmoqda: ishlab chiqarish liniyalarini avtomatlashtirish va robotlashtirish; “MyUzAuto” raqamli ekotizimi orqali mijozlarga xizmat ko‘rsatish tizimini yangilash; energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etish; eksport uchun yangi modellarni ishlab chiqish (“Tracker”, “Onix”, “Damas New” va boshqalar).

Korxonada 2021–2024-yillarda umumiy qiymati 500 mln AQSh dollaridan ortiq innovatsion investitsiya dasturlarini amalga oshirgan bo‘lib, ularning 60 foizi xorijiy kreditlar va investitsiyalar hisobiga moliyalashtirilgan [10].


“O’zAuto Motors” AJ innovatsion faoliyatni quyidagi manbalar orqali moliyalashtirib kelmoqda (1-jadval):

<b>Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish manbalari tarkibi (2022-yil holatiga ko’ra)</b>		
<b>Moliyalashtirish manbasi</b>	<b>Ulushi (%)</b>	<b>Izoh</b>
Korxonaning o’z mablag’lari (sof foyda)	28	Modernizatsiya ishlari uchun ajratilgan
Davlat qo’llab-quvvatlovi (subsidiyalar, grantlar)	12	Innovatsion texnologiyalarni import qilishda
Bank kreditlari va lizing	35	Asosan ishlab chiqarish liniyalarini yangilash uchun
Xorijiy investitsiyalar (GM, EBRD)	25	Yangi avtomobil modellari ishlab chiqish uchun
Jami:	100	

(Manba: “O’zAuto Motors” AJ yillik moliyaviy hisobotlari asosida [10].

Jadvaldan ko’rinib turibdiki, innovatsion loyihalarning asosiy qismi tashqi manbalar hisobiga amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRD) hamda General Motors kompaniyasining to’g’ridan-to’g’ri investitsiyalari korxonaga texnologik modernizatsiyani jadallashtirish imkonini bergan.

Korxonaning innovatsion loyihalari samaradorligini baholashda quyidagi ko’rsatkichlardan foydalanish mumkin:



Quyida “O’zAuto Motors” da 2022–2024-yillarda amalga oshirilgan “Tracker” modelini ishlab chiqarish loyihasi bo’yicha tahlil natijalarini keltirishimiz mumkin:

Investitsiya hajmi – 110 mln AQSh dollari;

Kutilayotgan NPV – +27 mln AQSh dollari;

IRR – 16,8 %;

Qaytish muddati – 5 yil.

Bu ko’rsatkichlar loyiha iqtisodiy jihatdan samarali ekanini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, korxonalar energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish orqali elektr energiyasi iste’molini 8–10 % ga kamaytirishga, ishlab chiqarish tannarxini esa 4–5 % ga pasaytirishga erishgan [11].

Tahlillar shuni ko’rsatadiki, “O’zAuto Motors” AJ innovatsion faoliyatni moliyalashtirishda sezilarli yutuqlarga erishgan. Biroq, mavjud tizimda ayrim muammolar ham mavjud. Masalan: ichki mablag’lar ulushi yetarli emas; ventur kapital bozorining rivojlanmaganligi; xorijiy investitsiyalarni jalb etish jarayonining murakkabligi; kredit resurslari stavkalari nisbatan yuqori.

Shu sababli, quyidagi yo’nalishlarda tizimli takomillashtirish zarur hisoblanadi: Innovatsion fondlar va grantlar hajmini oshirish; Xususiy investorlarga soliq imtiyozlari berish; Davlat-xususiy hamkorlik asosida innovatsion markazlar tashkil etish; Bank sektorida uzoq muddatli innovatsion kredit liniyalarini yaratish.

Natijada, sanoat korxonalarida innovatsion loyihalarni moliyalashtirish samaradorligi oshadi, korxonalar raqobatbardoshligi kuchayadi va mamlakatda innovatsion iqtisodiyot barqaror shakllanadi.

#### XULOSA VA TAKLIFLAR

O’zbekiston iqtisodiyotining barqaror o’sishini ta’minlashda sanoat korxonalarining innovatsion salohiyatini oshirish alohida ahamiyatga ega. Innovatsion faoliyat korxonaning raqobatbardoshligini kuchaytirish, ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish va eksport imkoniyatlarini kengaytirishning muhim omilidir. Shu nuqtai nazardan, innovatsion loyihalarni samarali moliyalashtirish mexanizmlarini yaratish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot davomida quyidagi asosiy ilmiy-amaliy xulosalarga kelishimiz mumkin. Birinchidan: Innovatsion faoliyatning nazariy mohiyati shundan iboratki, u nafaqat yangi mahsulot yoki texnologiyalarni ishlab chiqish, balki ilmiy natijalarni tijoratlashtirish, yangi bozorlarni o’zlashtirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish jarayonlarini ham o’z ichiga oladi. Shu sababli, innovatsion faoliyatni faqat ilmiy yoki texnik jarayon sifatida emas, balki kompleks iqtisodiy tizim sifatida ko’rish zarur. Ikkinchidan: Sanoat korxonalarida innovatsion

loyihalarni moliyalashtirish manbalari uch guruhga bo'linadi: ichki (korxonalar mablag'lari, foyda, amortizatsiya ajratmalari), tashqi (bank kreditlari, ventur kapital, xususiy investorlar) va davlat (byudjet mablag'lari, grantlar, subsidiyalar). Bu manbalarni kompleks qo'llash innovatsion faoliyat samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Uchinchidan: "O'zAuto Motors" AJ misolida o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, korxonalar innovatsion loyihalarni asosan tashqi manbalar – xorijiy investitsiyalar, EBRD kreditlari va strategik hamkorlik dasturlari hisobiga moliyalashtirmoqda. Shu bilan birga, ichki mablag'lar ulushi 30 foizdan kam bo'lgani sababli, korxonalar moliyaviy mustaqilligi yetarli darajada emas. Innovatsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligi baholash natijalari (NPV, IRR, payback period) "O'zAuto Motors" da amalga oshirilayotgan loyihalarning yuqori darajada foydali ekanini ko'rsatadi. Biroq, innovatsion kreditlar foiz stavkalarining yuqoriligi va ventur investitsiyalar infratuzilmasining sustligi ularning kengayishini cheklamoqda.

Yuqoridagi natijalardan kelib chiqib, Innovatsion fondlar faoliyatini kengaytirishni ya'ni davlat byudjeti, xalqaro tashkilotlar va xususiy sektor ishtirokida yangi innovatsion moliya institutlarini (masalan, Innovatsion Investitsiya Fondi) tashkil etish; Ventur kapital bozorini rivojlantirish. Ya'ni xususiy investorlar uchun soliq imtiyozlari va kafolat mexanizmlarini joriy etish, startaplarni qo'llab-quvvatlash uchun ventur fondlar tarmog'ini kengaytirish; Davlat-xususiy hamkorlik (PPP) asosida innovatsion klasterlar va texnoparklar yaratish, bunda sanoat korxonalarini, universitetlar va ilmiy markazlar hamkorligini kuchaytirish; Bank sektorida uzoq muddatli va past foizli kredit liniyalarini yaratish orqali korxonalarining texnologik yangilanishini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni joriy etishni va "O'zAuto Motors" tajribasidan kelib chiqib, avtomobilsozlik tarmog'ida energiya tejimkor texnologiyalar va "yashil" ishlab chiqarish loyihalarini qo'shimcha rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish mexanizmlarini tadbir etish kabi takliflarni bildirishimiz mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Schumpeter J. The Theory of Economic Development. – Harvard University Press, 1934.
2. Freeman C., Soete L. The Economics of Industrial Innovation. – Routledge, 1997.
3. Drucker P. Innovation and Entrepreneurship. – Harper & Row, 1985.
4. O'zbekiston Respublikasi Qonuni "Innovatsion faoliyat to'g'risida", 24.07.2019 y., O'RQ-559-son.

5. “2022–2026 yillarda Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”. – Prezident.uz, 2022.
6. Porter M. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. – Free Press, 1985.
7. OECD. Financing Innovative Enterprises. – OECD Publishing, 2021.
8. Muminov, M. (2023). “Sanoat korxonalarida innovatsion menejmentni rivojlantirish muammolari.” Innovatsion rivojlanish jurnali, №2, 45–52-betlar.
9. “O‘zAuto Motors” AJ rasmiy sayti – [www.uzautomotors.uz](http://www.uzautomotors.uz) (2024-yil hisobot ma’lumotlari).
10. O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish agentligi. Sanoat tarmoqlarida innovatsion faoliyat monitoringi. – Toshkent, 2024.
11. EBRD Annual Report 2023. Investment in Automotive Industry in Uzbekistan. – London, 2023.